



## OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINI BIR GURUH SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLIH CHORALARI

Z.Q. Jabbarov

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Tergov faoliyati  
kafedrasida katta o'qituvchisi, yuridik fanlari bo'yicha falsafa  
doktori, dotsent, podpolkovnik

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13374146>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> August 2024

Accepted: 15<sup>th</sup> August 2024

Published: 18<sup>th</sup> August 2024

### KEYWORDS

### ABSTRACT

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda "Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi"<sup>1</sup>, deya qayd etildi. So'ngi yillarda mamlakatimizda oilalarni turmush sharoitlarini yaxshilash, ularning tinchligi va totuligini ta'minlash masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda.*

Mamlakatimizda oilalardagi huquqiy munosabatlar asosan oila kodeksi, fuqarolik kodeksi va boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi. Ammo, oilalarning tinch-totuv kun kechirishiga oilaviy (mayshiy) zo'rvonlik kabi salbiy holatlar ham o'zining oo'rin ta'sirini ko'rsatadi. Bu kabi salbiy holatlar uchun ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda va jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007 yil 27 iyundagi "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 6-sonli qarori, 16-bandida "Xotinini (erini), sobiq xotinini (sobiq erini), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsni yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsning badaniga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish jinoyati maxsus sub'ektki jinoyat bo'lganligi uchun jinoyat sodir etishda ishtirok etgan boshqa shaxslarning harakatlari Jinoyat kodeksi 28 va 126<sup>1</sup>-moddasining tegishli qismlari bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim"<sup>2</sup> deb belgilangan.

Hozirgi kunda oilaviy (maishiy) zo'rvonliklarning aksariyat qismi oddiy ishtirokchilikda sodir etilmoqda. Bu borada olimlarning fikrlari ham turlicha. Xususan, N.Salaev ta'kidlaganidek, oddiy ishtirokchilikda guruh ishtirokchilari harakatlarining o'zaro muvofiqligi nazarda tutiladi, ya'ni har bir ishtirokchi oldindan til biriktirilmaganligiga qaramay, boshqalar bilan

<sup>1</sup> <http://www.ngo.uz/uz/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-khalkaro-khotin-kizlar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutki>.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007 yil 27 iyundagi "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 6-sonli qarori, 16-bandi.

muvoqif ravishda harakat qilayotganini anglaydi<sup>3</sup>. D.Yu. Karaketova ta'kidlaganidek, "Oddiy ishtirokchilikda faqatgina ikki yoki undan ortiq bajaruvchi ishtirok etib, jinoyat ishtirokchilarning boshqa turlari (tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi) mavjud bo'lmaydi"<sup>4</sup>. M.Usmonaliev ishtirokchilikning amaliyotda bu kabi baholanishini to'g'ri deb hisoblaydi. Uning yozishicha, agarda ushbu jinoyatlar oldindan til biriktirib ... sodir etilib, o'sha moddaning tegishli qismi yoki bandida bu belgilar kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilmagan bo'lsa, oddiy ishtirokchilik deb kvalifikatsiya qilinadi<sup>5</sup>, deb ta'kidlaydi.

Ayrim holatlarda oilaviy (maishiy) zo'ravonlik oldindan til biriktirib murakkab ishtirokchilik shaklida sodir etilish holatlari ham kamdan-kam kuzatiladi. Xususan, S.S. Muxammadjonov ta'kidlashicha, "Ishtirokchilikda jinoyatning mohiyati o'zgaradi, ya'ni muayyan jinoyat ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan sodir etilganda jinoyatda ishtirok etuvchi shaxslar harakati o'zaro birlashadi hamda ular o'rtasida kelishuv vujudga keladi"<sup>6</sup>. Qonun chiqaruvchi aynan shu sababli JK 56 moddasi "m" bandida bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda jinoyat sodir etishni jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutgan<sup>7</sup>.

Farg'ona viloyatida oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etilish sabablari quyidagilar tufayli sodir etilgani ma'lum bo'ldi: 8,2 foiz er-xotin o'rtasidagi asosiz va asosli rashk, ular: a) asosli rashk, ya'ni aybilanuvchi shaxslarning birinchi turmushdan ajrashmasdan turib, turmush o'rtog'ining boshqa shaxs bilan shar'iy nikoh asosida yashayotganligi (3 nafar); b) asossiz rashk (13 nafar); 21,1 foiz (41 nafar) ishsizlik; 7,2 foiz (14 ta) oila-a'zolar o'rtasida iqtisodiy yetishmovchilik yoki kam daromadlilik, uy-joy yetishmovchiligi; 4,6 foiz 3-shaxslar (qarindosh urug'lar)ning oilaviy shaxsiy masalalarga o'rinsiz aralashuvi bir guruh oilaviy zo'ravonlikka sabab bo'lishi (9 ta), ular: qayinona-kelin o'rtasida sodir etilgan nizoli vaziyatlar. 52,6 foiz ayrim oila-a'zolar o'rtasida ta'lim-tarbiyani yaxshi emasligi, ular: oilada er-xotin o'rtasidagi ma'naviy-ruhiy muhitning nosog'lomligi va ularning o'zaro murosa qilmaganligi oqibatida (25 ta); alkogolik mastlik ta'sirida, shuningdek jabrlanuvchi shaxsning viltimligi yuqoriligi, ya'ni spirtli ichimlik iste'mol qilgan eriniga o'chakishib g'azabini keltirganligi (6 ta); moddiy yetishmovchilik oqibatida (7 ta); aybilanuvchi shaxslarning aksariyatining faqat o'rta ma'lumotga ega ekanligi, ijtimoiy-huquqiy ongining yetarli darajada rivojlanmaganligi (10 ta); jinoyatchi shaxs to'liqsiz oilada voyaga yetganligi va boshqalar salbiy muhit ta'siriga tushganligi (3 ta); o'ch olish zamirida (4 ta); oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun tayinlangan ma'muriy jazo chorasidan ko'zlangan maqsadiga erishilmaganligi shuningdek ushbu toifadagi shaxslar axloqan tuzalmaganligi (2 ta); jazo muddatini o'tab chiqqan shaxslarning jamiyatga ijtimoiy moslasha olmayotganligi (10 ta); oila a'zolaridan birining sodda-ishonuvchanligi va beparvoligi (3 ta); holatda sodir etilishi kuzatilgan. oila-azalaridan birining salbiy xulq-atvori va ularning boshqa oila

<sup>3</sup> Salaev N.S. Bir-biriga tobe bo'lmagan harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro ustav munosabatlariga oid ustav qoidalarini buzish (jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar). Monografiya. – Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2012. –B. 74-75.

<sup>4</sup> D.Yu.Karaketova. Bir guruh shaxslar tomonidan bezorilik sodir etganlik uchun javobgarlik. <file:///C:/Users/User/Downloads/administrator>, Jurisprudence. 2020.1-son. – B. 70.

<sup>5</sup> Usmonaliev M. Jinoyat huquqi Umumiy qism. Darslik. – Toshkent: Yangi avlod, 2006. – B. 283.

<sup>6</sup> Muxammadjonov S.S. Jinoiy javobgarlikni individuallashtirishda ishtirokchilik institutining dolzarb masalalari: yurid. fan. nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent: TDYuI, 2011. – B. 10-11.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2021 yil 1 aprelgacha o'zgartish va qo'shimchalar bilan) – T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021. – B. 35.

a'zolariga ta'siri (15 ta); 6,2 foiz (12 ta) oila-a'zolar o'rtasida mol-mulkni bo'lish yoki meros talashishdagi nizolar.

Endi oilaviy (maishiy) zo'ravonlikning sabablari quyidagilar:

*Er-xotin o'rtasidagi asosiz (yoki asosli) rashk qilish hissining yuqoriligi.* Tahlillarga ko'ra oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyatini sodir etgan shaxslar orasida o'z turmush o'rtog'ining hiyonat qilishi sababli, asossiz rashk qilish motivi bilan bog'liq hissining yuzaga kelishi tufayli ushbu jinoyatni sodir etganlar 13 nafar (13,0 foiz)ni tashkil etadi. Masalan, fuqaro 2023 yil 31 oktyabr kuni soat 22:00 larda Qo'shtepa tumani Qo'shtepa mahallasida fuqaro Q.T. shar'iy nikoh asosidagi turmush o'rtog'i Q.M. qizi bilan o'zaro rashk tufayli janjallashib, janjal davomida Q.M. turmush o'rtog'i QT.ni urib unga tan jarohati yetkazgan. O'rganishlar davomida, jinoyat sodir etgan Q.M. turmush o'rtog'i Q.T.ni urib unga tan jarohati yetkazish sababi, asossiz rashk qilishi motivida jinoyat sodir etgani ma'lum bo'ldi.

*Ishsizlik va iqtisodiy yetishmovchilik.* Tahlillarga ko'ra oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyatini sodir etgan shaxslar orasida ishsizlik va iqtisodiy yetishmovchilik ortidan ushbu jinoyatga qo'l urganlar 41 nafar (21,3 foiz)ni tashkil etadi. Masalan, fuqaro X.A. 2023 yilning 22 aprel kuni kuni soati 12:30 larda yashash xonadonida ya'ni Quva tumani Tinchlik mahallasi, Omad ko'chasi 3 uy issiqxonasida turmush o'rtog'i X. S. qizi bilan birga ish qilayotib, X.S. qizining oilada iqtisodiy jihatdan qiynalganligi sababli Dubay shahriga ishlash maqsadida ketish niyati borligi haqida xabardor bo'lib, o'zaro janjallashib, janjal davomida X.S. qizining tanasini turli joylariga qo'llari bilan urib, oyoqlari bilan tepib, tan jarohati yetkazgan. O'rganishlar davomida fuqaro X.A. va X.S. doimiy ish joyiga ega emasligi, taklif etilgan ish o'rinlarida ishlamasligi, kunlik ehtiyojlari uchun moddiy tomondan qiynalganliklari natijasida jinoyat sodir etishgani aniqlangan.

*3-shaxslar (qarindosh urug'lar)ning oilaviy shaxsiy masalalarga o'rinsiz aylashuvi bir guruh shaxslar tomonidan oilaviy maishiy zo'ravonlikka sabab bo'lishi.* Odatda, kundalik hayotda aksariyat oilalarda er va xotinlar bilan birgalikda, ularning yaqin qarindoshlari (ota-ona, aka-ukalar va boshq.) ham yashaydilar. Qarindoshlar o'rtasida ham beqaror va tashqi muhit ta'siriga tez beriluvchan, ixtiyorsiz shaxslar o'z xis-tuyg'ulariga berilib, har xil bo'lar-bo'lmas fikrlari bilan er-xotin o'rtasidagi oilaviy masalalarga aralashib nizo keltirib chiqishi oqibatida jinoyat sodir etilishiga sabab bo'ladi.

Tahlillarga ko'ra, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyatini sodir etgan shaxslarga 3-shaxslar (qarindosh urug'lar)ning oilaviy shaxsiy masalalarga o'rinsiz aralashuvi ta'siri ortidan ushbu jinoyatni sodir etganlar 9 nafar (4,6 foiz)ni tashkil etadi. Masalan, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik sodir etgan fuqaro I.R. 2023 yil 16 avgust kuni soat 21-30larda Dang'ara tumani Arziqtepa MFY. Guzarboshi ko'chasi raqamsiz uyda turgan turmush o'rtog'i X.R. bilan bo'lgan oilaviy janjalidan xabar topib, yashash xonadoniga opasini olib ketish uchun kelgan qayin og'asi E.A. o'g'li bilan pochchasi I.R. o'zaro janjallashib, unga tan jarohati yetkazgan. O'rganishlar davomida, jinoyat sodir etgan fuqaro E.A. opasi va pochchasining oilaviy shaxsiy masalalariga asossiz aralashganligi natijasida oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyati sodir etgani ma'lum bo'ldi.

*Ayrim oila-a'zolar o'rtasida ta'lim-tarbiyani yaxshi emasligi.* Tahlillarga ko'ra, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik sodir etgan shaxslar orasida voyaga yetmaganlarga nisbatan ota-onasi yoki yaqinlari tomonidan ta'lim va tarbiyaviy ishlar yetarli darajada olib borilmaganligi yoxud oilada ta'lim beradigan yoshi kattalarning yo'qligi tufayli ushbu jinoyatni sodir etganlar 102 nafar (52,6 foiz)ni tashkil etadi. Masalan, fuqaro A.M. tarbiyasining yetishmasligi natijasida, turmush o'rtog'ini asossiz rashk qilib 2023 yil 20 may kuni soat 13:30 larda Rishton tumani, Pandigon MFY, Shifokorlar ko'chasi 10-uyda turmush o'rtog'i A.D. qizini yollanma ish qilish uchun dala maydoniga ketganligi yuzasidan o'zaro asossiz rashk qilib, bo'lar-bo'lmas vajlar bilan janjallashib, janjal davomida qo'llari bilan A.D. qizining quloq sohasiga bir marotaba tan jarohati yetkazgan. O'rganishlar davomida, fuqaro A.M. oilada turmush o'rtog'i bilan ko'p marotaba, muntazam ravishda turmush o'rtog'i A.D. qizini o'rinsiz gaplarni gapirib, asabiga

tegishi, arimagan holatlarga tanqid ostiga olishi, o'rinsiz shaxsiy adovati zahirida jinoyat sodir etgani aniqlandi. Yana bir misol, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyatini sodir etgan shaxslar orasida spirtli ichimliklar yoki shaxsning aql-idrokiga kuchli ta'sir etuvchi moddalarga qaramlik tufayli ushbu jinoyatni sodir etganlar 6 nafar (3,0 foiz)ni tashkil etadi. Masalan, fuqaro 2023 yil 20 iyun kuni soat 05:00larda Do'rmancha m.f.y., Qayrag'och ko'chasi, 18-uyda yashovchi 21.02.1992 yilda tug'ilgan fuqaro J.X. o'g'li mast holatda o'z yashash xonadonida turmush o'rtog'i 14.04.1993 yilda tug'ilgan fuqaro O.Z. qizi bilan oilaviy kelishmovchilik tufayli o'zaro janjallashib, oshxona pichog'ini olib, turmush o'rtog'i O.Z. qizining o'ng yelka sohasi orqa tomoniga ikki marotaba urib tan jarohati yetkazib, shu vaqtning o'zida o'z joniga qasd qilish maqsadida o'sha oshxona pichog'i bilan o'zining bo'yin sohasi old tomonini kesib, o'ziga-o'zi tan jarohati yetkazgan. O'rganishlar davomida, fuqaro J.X. spirtli ichimliklar iste'mol qilishga ruju qo'ygani, doimiy janjal natijasida oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyati sodir etgani aniqlandi.

*Oila-a'zolar o'rtasida mol-mulkni bo'lish yoki meros talashib nizolashish bir guruh shaxslar tomonidan oilaviy maishiy zo'ravonlikka sabab bo'lishi.* Tahlillarga ko'ra, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyatini sodir etgan shaxslar orasida mol-mulk va meros talashish ortidan ushbu jinoyatga qo'l urganlar 12 nafar (6,2 foiz)ni tashkil etadi. Masalan, 2023 yil 15 aprel kuni soat 08:30 larda fuqaro B.A. Qo'qon shahar Turkiston ko'chasida joylashgan 1 sonli notarius binosida turmush o'rtog'i A.K. qizi bilan uy joyni boshqa shaxsga o'tkazib berish masalasida o'zaro kelishma olmay janjallashib qolib, uni qo'llari bilan urib, oyog'i bilan tepib, tan jarohatlari yetkazgan. O'rganishlar davomida fuqaro B.A. va A.K.lar o'zaro mulk talashishi zahirida, o'z manfaatlarini ustun qo'yib, xis-tuyg'ulariga berilishi natijasida oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyatini sodir etishgani aniqlangan.

Oilaviy (maishiy) zo'ravonlikning asosiy sabablari er-xotin o'rtasidagi o'zaro janjal va kelishmovchilik, aybilanuvchi shaxslarning aksariyatini ijtimoiy-huquqiy ongining yetarli darajada rivojlanmaganligi, moddiy yetishmovchilik bilan izohlash mumkin. Ushbu sabablarni bartaraf etish uchun muayyan kasbiy ko'nikmalarni egallamagan, mutaxassisligi bo'lmagan shaxslarni kasbga tayyorlash, aholining band bo'lmagan qatlamlari uchun munosib ish o'rinlarini yaratish choralari ko'rish maqsadga muvofiq.

Yuqorida sanab o'tilgan oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyati sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish uchun quyilgilar tavsiya etiladi:

*Er-xotin o'rtasidagi asosiz (yoki asosli) rashk qilish holatlarini oldini olish yuzasidan tavsiyalar:* qonuniy nikohsiz yashovchi ayollar ro'yxatini shakllan-tirish, alohida yig'majild yuritish, nikohsiz yashash sabablarini aniqlash, yakka tartibdagi ijtimoiy profilaktik chora-tadbirlarni belgilash; ushbu toifadagi ayollar bilan yakka tartibda profilaktika suhbatini o'tkazish, nikohni qonuniy asosda rasmiylashtirish yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish; nikohni rasmiylashtirish uchun monelik qiluvchi holatlarni aniqlash va uni bartaraf etish choralari ko'rish; nizoli oilalarda (umumiy ro'zg'or asosida) yashovchi xotin-qizlar ro'yxatini shakllantirish, alohida yig'majild yuritish hamda yakka tartibdagi ijtimoiy profilaktika chora-tadbirlarini belgilash; nizolarning kelib chiqish sabablarini o'rganish, muammolarning yechimini topishga vakolati doirasida har tomonlama ko'maklashish; nizolashayotgan tomonlarning nizo predmeti yuzasidan bo'lib o'tadigan munozaralarida ishtirok etish; ushbu toifadagi oilalarning turmush tarzini o'rganish, oila a'zolariga mahallaning obro'-e'tiborli vakillarini birlashtirish; nizoli oilalarda yashovchi xotin-qizlardan doimiy ravishda xabar olib turish, o'z joniga suiqasd qilishining barvaqt oldini olish bo'yicha psixologik tadbirlar tashkil etish; ushbu toifadagi xotin-qizlarning voyaga yetmagan farzandlarini ta'lim muassasalariga joylashtirishi hamda ijtimoiy himoya kafolatlaridan foydalanishida amaliy jihatdan ko'maklashish; nizoli oilalarda yashovchi xotin-qizlarga zarur hollarda himoya orderini berish bo'yicha profilaktika inspektoriga taklif kiritish.

*Ishsizlik va iqtisodiy yetishmovchiligi bo'lgan oilalar bilan ishlash yuzasidan tavsiyalar:* bandligi ta'minlanmagan mehnatga layoqatli, doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan er yoki

xotinlar ro'yxatini shakllantirish, alohida yig'majild yuritish, ularning qobiliyati va kasbiy layoqatini o'rganish, yakka tartibdagi manzilli chora-tadbirlarni belgilash; ushbu toifadagi er yoki xotinlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv markazlariga yuborish, ishga joylashtirish choralari ko'rish; bandligi ta'minlanmagan mehnatga layoqatli xotin-qizlarning mehnat yarmarkalarida ishtirok etishini ta'minlash, ularni haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish; tadbirkorlik faoliyati bilan mustaqil shug'ullanish istagini bildirgan er yoki xotinlarni yetakchi tadbirkor shaxslarga biriktirish choralari ko'rish; bandligi ta'minlanmagan mehnatga layoqatli er yoki xotinlarga dasturlar doirasida kredit va subsidiyalar olishida ko'maklashish; bandligi ta'minlanmagan mehnatga layoqatli er yoki xotinlarga uy sharoitida dehqonchilik, chorvachilik va boshqa shu kabi faoliyat turlarini yo'lga qo'yishida ko'maklashish.

*3-shaxslar (qarindosh urug'lar)ning oilaviy shaxsiy masalalarga o'rinsiz aralashish holatlarini oldini olish yuzasidan tavsiyalar:* oiladagi er-xotin o'rtasidagi masalalarga o'rinsiz aralashmaslik yuzasidan jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalari va huquq normalarini o'rgatish, ularga rioya qilishni targ'ib etishga qaratilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish; er-xotin masalalarga oid Konstitutsiya va boshqa qonunchilik hujjatlarining mazmun mohiyatini tushuntirish, ularga itoatkorlikni targ'ib qilish; er-xotin o'rtasidagi masalalarga o'rinsiz aralashish natijasida shaxslar, jamiyat va davlat manfaatlariga yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar, uning salbiy oqibatlari, ular uchun tayinlanishi mumkin bo'lgan javobgarlik va jazo haqida badiiy va hujjatli filmlar namoyish etish hamda ularning muhokamasini o'tkazish; er-xotin o'rtasidagi masalalarga o'rinsiz aralashishga oid huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyati aks ettirilgan maqolalar, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish; er-xotonga oila va farzand tarbiyasida mas'uliyatni tushuntirish, agarda ushbu mas'uliyatni bajarmaslik yuzaga kelganda ma'muriy va jinoiy javobgarlik tayinlanishi mumkinligi haqidagi tushunchalarni ularning ongiga singdirish; er-xotin o'rtasidagi masalalarga o'rinsiz aralashmasligi borasida qarindoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida huquqni muhofaza qiluvchi, mudofaa, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda turli tadbirlar tashkil etish; qarindoshlarning g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari, jumladan, spirtli ichimlik, giyohvandlik va psixotrop moddalar iste'mol qilishga qaramlik, uning yaqin qarindoshlari oilasiga salbiy ta'siri haqida tushuntirishlar olib borish; oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyatiga oid sud hukmlaridan aniq misollar keltirish asosida jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etishni birgalikda muhokama qilib fikrlarini eshitish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va unga murosasizlik kayfiyatini shakllantirish va ijobiy ruhiyatga ta'sir ko'rsatish.

*Ayrim oila-a'zolar o'rtasida ta'lim-tarbiyani yaxshi emasligi holatlarini bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar.* O'rganishlar davomida Farg'ona viloyatida 2023 yilning 12 oyida oila-a'zolari o'rtasida ta'lim-tarbiyaning yetishmasligi oqibatida oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyati ko'p sodir etilgani ma'lum bo'ldi. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq oila-a'zolarining umumiy axloqiy va huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim: xotin-qizlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir hududiy, mahalliy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish